O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK 378.14:37.041

Nargiza ASADULLAYEVA,
Tayanch doktorant, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Sarbon universiteti o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: asadullayevanargiza93@gmail.com

O‘zMPU professor v.b. D.Abduvaliyeva taqrizi asosida

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING METACOGNITIVE COMPETENCIES OF STUDENTS IN INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES

Annotation

This article scientifically substantiates the system of pedagogical conditions that ensure the development of metacognitive competencies of university students in their independent educational activities. Within the framework of the research, five priority pedagogical conditions are highlighted: diagnostic-based differentiation, a system of tasks with a metacognitive structure, the sequence of supported and independent stages, process-oriented assessment, and the targeted use of digital tools. The content, implementation mechanisms, and effectiveness criteria for each condition are also analyzed in detail. Models for improving the quality of education based on metacognitive regulation and self-management are proposed.

Key words: Metacognitive competence, independent education, pedagogical conditions, diagnostics, differentiation, reflection, digital tools, tutoring, credit-module system.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье научно обоснована система педагогических условий, обеспечивающих развитие метакогнитивных компетенций студентов вузов в самостоятельной образовательной деятельности. В рамках исследования выделены пять приоритетных педагогических условий: дифференциация на основе диагностики, система заданий с метакогнитивной структурой, последовательность опорных и самостоятельных этапов, оценка процесса и целевое использование цифровых инструментов. Также детально проанализированы содержание, механизмы реализации и критерии эффективности каждого условия. Предложены модели повышения качества образования на основе метакогнитивной регуляции и самоуправления.

Ключевые слова: Метакогнитивная компетенция, самостоятельное образование, педагогические условия, диагностика, дифференциация, рефлексия, цифровые инструменты, тьюторство, кредитно-модульная система.

TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATIDA METAKOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining mustaqil ta’lim faoliyatida metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishni kafolatlaydigan pedagogik shart-sharoitlar tizimi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida diagnostikaga asoslangan tabaqalashtirish, metakognitiv tuzilmali topshiriqlar tizimi, tayanchli va mustaqil bosqichlarning izchil ketma-ketligi, jarayonni baholash hamda raqamli vositalardan maqsadli foydalanish kabi beshta ustuvor pedagogik shart ajratib ko‘rsatilgan. Shuningdek, har bir shartning mazmuni, amalga oshirish mexanizmlari, kognitiv yuklamani taqsimlash va samaradorlik mezonlari chuqur tahlil qilingan. Metakognitiv regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish asosida ta’lim sifatini oshirish modellari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Metakognitiv kompetensiya, mustaqil ta’lim, pedagogik shart-sharoitlar, diagnostika, tabaqalashtirish, refleksiya, raqamli vositalar, tyutorlik, kredit-modul tizimi, o‘z-o‘zini boshqarish.

Kirish. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, tyutorlik tizimi va infratuzilmani kengaytirish vazifalari belgilab berilgan. Bugungi axborotlashgan jamiyatda talabalarni passiv bilim oluvchidan o‘z bilish jarayonining faol subyektiga aylantirish obyektiv zaruriyatdir. O‘quv jarayonida kredit-modul tizimining keng joriy etilishi mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishning yangicha, innovatsion yondashuvlarini talab qilmoqda.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, mustaqil ta’limni tashkil etishda bir qator takrorlanuvchi to‘siqlar mavjud bo‘lib, bularga topshiriqlarning bir xilligi, mustaqil ishning qisqa muddatli topshiriqqa aylanib qolishi, metodik ta’minotning yetarli emasligi, motivatsiya mexanizmlarining to‘liq ishlamasligi, baholashda natijaga yo‘naltirilgan yondashuvning ustunligi hamda raqamli resurslardan samarali foydalanish ko‘nikmalarining yetishmasligi kiradi. O‘quv jarayonining tashqi (topshiriq, baholash, resurs) va ichki (talabaning o‘z faoliyatini boshqarishi) jihatlariga tegishli ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun qat’iy pedagogik shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli rakurslarda tadqiq etilgan. Pedagogik tadqiqotlarda “shart” tushunchasi ta’lim jarayonining kutilgan natijaga erishishiga ta’sir qiladigan, tadqiqotchi tomonidan maqsadli yaratiladigan va boshqariladigan holat, vosita va munosabatlar majmuasi ishlatiladi.

Magomedova o‘z modelida pedagogik shartlarni metodologik, tashkiliy, mazmuniy va diagnostik guruhlarga ajratgan hamda ularni jarayon samaradorligini ta’minlovchi omil sifatida ko‘rsatgan. A.I. Ashirova va I.I. Boltayeva ishlarida mustaqil topshiriqlar mazmuni, murakkabligi hamda talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olish zarurligi asoslangan.

Xorijiy olimlardan Braad va uning hammualliflari o‘tkazgan tajribalarda metakognitiv qo‘llab-quvvatlash amaliyoti, ayniqsa, dastlabki bilish darajasi past bo‘lgan talabalarda eng yuqori samaradorlik ko‘rsatganligi isbotlangan. G. Schraw va R. Dennison tomonidan ishlab chiqilgan metakognitiv xabardorlik so‘rovnomasi (MAI) shaxsning “bilishni bilish” (deklarativ, protsessual, shartli bilim) va “bilishni boshqarish” (rejalashtirish, axborotni boshqarish, kuzatish, xatolarni tuzatish va baholash) darajalarini o‘lchashning ishonchli vositasidir.

Shuningdek, Zimmerman tomonidan ilgari surilgan o‘z-o‘zini boshqarish fazalari ham talaba mustaqil ta’limini tashkil etishning fundamental asoslaridan biridir. M.R. Fayziyeva, S.I. Qo‘lmamatov, B.X. Xodjayev kabi mahalliy olimlar tomonidan

mustaqil ta’limda motivatsiya, bosqichma-bosqich monitoring, o‘qituvchining yo‘naltiruvchilik roli borasida qator ilmiy xulosalar berilgan. Savenkov va hammualliflari tajribasida esa metakognitiv kompetensiya kasbiy mazmundagi loyihalash vazifalari orqali muvaffaqiyatli rivojlantirilgani qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etishdagi mavjud to‘siqlar mantiqiy-tizimli tahlil qilindi. Muammolardan kelib chiqib, pedagogik shartlarni tanlashda to‘rt asosiy mezonga tayanildi:

1) har bir shart aniq amaliy to‘siqdan kelib chiqishi;

2) kredit-modul sharoitida mavjud mustaqil ish soatlari ichida, qo‘shimcha soat talab qilmasdan amalga oshirilishi imkoniyati;

3) shartlarning bir-biriga zid bo‘lmay, yaxlit tizimni tashkil etishi;

4) har bir shartning bajarilishi kuzatiladigan va o‘lchanadigan mezonlar bilan tavsiflanishi.

Talabalarning boshlang‘ich darajasini aniqlash uchun G. Schraw va R. Dennisonning metakognitiv xabardorlikni o‘lchaydigan so‘rovnomasining (MAI) adaptatsiyalangan varianti qo‘llanildi. Tadqiqotda tabaqalashtirish, tayanchni bosqichma-bosqich kamaytirish, aniq o‘rgatish, fan mazmuni bilan integratsiya va jarayonni baholash kabi metodologik tamoyillardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar asosida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatida metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishni ta’minlaydigan beshta ustuvor pedagogik shart-sharoitlar tizimi ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat:

Mazkur shart talabaning boshlang‘ich metakognitiv darajasini aniqlash va shu darajaga mos tayanch miqdori hamda topshiriq murakkabligini belgilashdan iborat. Barcha talabalarga bir xil yordam berish ba’zilar uchun ortiqcha, boshqalar uchun yetarsiz bo‘lishi ilmiy isbotlangan. Ushbu shartning amalga oshirish mexanizmi uch qadamni o‘z ichiga oladi:

Bosqich	Jarayon nomi	Amalga oshiriladigan ishlar va tayanch turi
1	Boshlang‘ich diagnostika	MAI so‘rovnomasi, jarayonni kuzatish va mezonli rubrika tahlili o‘tkaziladi.
2	Profilga ajratish	Diagnostika natijalari asosida talabalar yuqori, o‘rta va quyi darajalarga guruhlanadi.
3	Tayanch turini belgilash	• Quyi daraja: To‘liq strukturalangan varaqa va namunalar taqdim etiladi. • O‘rta daraja: Qisqartirilgan savollar ro‘yxati beriladi. • Yuqori daraja: Faqat mezonlar va tanlov imkoniyati taqdim etiladi.

Mustaqil ta’lim topshiriqlari fan mazmunidan ajratilmagan holda metakognitiv elementlar bilan boyitilishi zarur. Topshiriqlar tarkibiga maqsad va natija, reja va strategiya, kuzatish nuqtalari, refleksiya savollari, mezonlar hamda tanlov imkoniyati kiritiladi. Topshiriqlar tizimi o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra uchga bo‘linadi:

1-daraja (tayanchli): reja, kuzatish va refleksiya shakllari tayyor holda beriladi.

2-daraja (yarim tayanchli): talaba qadamlarni o‘zi tuzadi, o‘qituvchi yo‘naltiruvchi savollar beradi.

3-daraja (ochiq): talaba maqsad, usul va taqdimot shaklini o‘zi tanlab, mustaqil refleksiv xulosa chiqaradi.

Bu kabi yondashuv talabalarning metakognitiv yuklamasini muqobillashtiradi hamda mustaqillikni bosqichma-bosqich o‘stiradi.

Mustaqil faoliyat 15 haftalik semestr misolida to‘rt mantiqiy bosqichda tashkil etiladi: diagnostik (1-2 haftalar), o‘rgatuvchi/tayanchli (3-5 haftalar), mustaqil qo‘llash (6-11 haftalar) va refleksiv-baholash (12-14 haftalar). Talizina va Vygotskiy nazariyalariga mos ravishda, dastlabki tashqi tayanch (varaqa, reja jadvali) asta-sekin qisqarib boradi va talabaning ichki aqliy amallariga aylanadi.

Konstruktiv yondashuv asosida baholash faqat yakuniy natijaga emas, balki talabaning reja tuzish, kuzatish, xatolarni tuzatish kabi jarayon elementlariga ham qaratiladi. Baholash vositalari sifatida mezonli rubrika, refleksiv portfolio (reja, kuzatuv yozuvlari), o‘z-o‘zini va tengdoshni baholash usullari qo‘llaniladi. Metakognitiv jarayon bo‘yicha rubrika yuqori, o‘rta va quyi darajalarda aniq mezonlarni o‘z ichiga oladi. Jarayonning umumiy baholashdagi ulushi oldindan e’lon qilinishi talabada ongli yondashuv va mas’uliyatni oshiradi.

O‘qituvchilar uchun qisqa metodik tayyorgarlik seminarlari tashkil etilib, ular o‘zlashtirishni nazorat qiluvchidan pedagogik menejer (fasilitator) roliga o‘tkaziladi. Ta’lim platformalarida (masalan, universitet elektron ta’lim tizimlarida) elektron portfolio, metakognitiv ko‘rsatmalar va avtomatik eslatmalar ishga tushiriladi. Sun’iy intellekt ilovalaridan foydalanishda talabaga qat’iy akademik qoidalar qo‘yiladi: olingan tayyor javobni tanqidiy baholash, manbani tekshirish va uni o‘quv refleksiyasiga kiritish talab etiladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatida metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq loyihalashtirilgan pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Ilmiy ish doirasida ajratilgan beshta shart – diagnostikaga asoslangan tabaqalashtirish, metakognitiv tuzilmali topshiriqlar, bosqichlar ketma-ketligi, jarayonni baholash hamda raqamli vositalarning integratsiyasi – kredit-modul tizimining mavjud vaqt va me’yoriy resurslari doirasida qo‘shimcha soat talab qilmagan holda samarali amalga oshirilishi kafolatlanadi.

Amaliy taklif sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Barcha oliy ta’lim muassasalarida mustaqil topshiriqlarni ishlab chiqishda metakognitiv elementlarni kiritish amaliyotini keng ommalashtirish;
2. Professor-o‘qituvchilar va tyutorlar uchun metakognitiv ta’lim metodikasi bo‘yicha qisqa muddatli maxsus malaka oshirish modullarini joriy etish;
3. O‘quv platformalarida elektron portfolio hamda metakognitiv baholash rubrikalarini raqamlashtirgan holda ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi 'O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’gi PF-5847-son Farmoni.
2. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom (VMQ-824).
3. Magomedova A.M. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya metakognitivnoy kompetentnosti studentov. – M., 2018. – 78-b.
4. Ashirova A.I., Boltayeva I.I. Talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish texnologiyalari.
5. Schraw G., Dennison R.S. Assessing metacognitive awareness // Contemporary Educational Psychology, 1994.
6. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya cheloveka. – M.: Smisl, Eksmo, 2005.
7. Talizina N.F. Upravlenie processom usvoeniya znaniy. – M., MGU, 1984.
8. Zimmerman B.J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory into Practice, 2002.
9. Savenkov A.I. va boshq. Metakognitiv kompetensiyalarni kasbiy ta’limda rivojlantirish, 2022.
10. Axatov Y.H. Talabalarda o‘quv faoliyatini metakognitiv boshqarish orqali qat’iyatlilik va mas’uliyatlilik sifatlarini rivojlantirish omillari, 2026.